



INFORMATIKA FANINI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH.

Ismonova Laziza Zokirjonovna

Andijon tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi Informatika fani
o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 03-June 2023 yil

KEY WORDS

*Pedagogik texnologiya, o'qituvchi,
dars, umumiy o'rta ta'lim maktabi*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Pedagogik faoliyat, o'qituvchining o'quvchilarga dars o'tish jarayoni qanday bo'lishligi ham Informatika fanini kasbga yo'naltirib o'qitish haqida so'z yuritiladi.

Pedagogik faoliyatning vazifalari: o'qitish, ta'lim-tarbiya berish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishdir. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni samarador o'qishlarini tashkil qilish faqatgina o'qitishning shakllarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Dars jarayoni esa – ta'limni tashkil etishning asosiy shaklidir. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Kasbga yo'naltirib o'qitish esa - bu o'qitish jarayonini tashkil etishning mazmuni va tuzilishini o'quvchilarning individual qiziqishlari va ustuvor jihatlarini hisobga olgan holda, kasbiy o'zini o'zi belgilashga tayyorlashdir.

Informatika o'qituvchisining informatika faninii kasbga yo'naltirib o'qitishi natijasida o'quvchilarda quyidagi xususiyatlar vujudga keladi:

- o'quvchida kasbiy o'z-o'zini aniqlashi, anglashi ortadi, kasbiy qaror qabul qilishi tezlashadi;
- kasb tanlashda qiynalayotgan, ba'zan ikkilanayotgan o'quvchilarda tanlayotgan kasbi haqidagi zaruriy, kasbiy axborot, maslahatlarga ega bo'ladilar;
- o'quvchida tanlagan kasbga nisbatan turg'un (doimiy) kasbiy qiziqishi va moyilligi shakllantiriladi;
- o'quvchi o'zi tanlagan kasbi o'zining psixologik va fiziologik imkoniyatiga mos kelish yoki kelmasligi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar;
- o'quvchilarning o'z qiziqqan kasb tanlashida jamiyat oldidagi burchi va ma'suliyat hissi ortadi.

Informatika fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish bo'yicha quyidagi misolni ko'rib chiqaylik:

Umumiy o'rta maktabning 5-sinflarida "Paint garfik muharriri" bobini o'qitishga jami 6 soat ajratilgan. Informatika fani o'qituvchisi ushbu mavzuni kasbga yo'naltirib o'qitish uchun quyidagicha ish bajaradi. O'qituvchi "Paint garfik muharriri bobini o'qitishning birinchi darsida dastur oynasi qismlari, asboblarning penelining tugmachalari, ranglar palitrasi haqidagi tushunchalarni beradi.

Ikkinchi, uchinchi va hokazo 6-darslar davomida va darsdan tashqari uyga vazifani bajarish uchun o'quvchilarni kasbga qiziqishlari bo'yicha quyidagicha kichik guruhga bo'ladi va topshiriqlar beradi:

A. Dizayner, rassomchilik kasblariga qiziquvchilarga "Kichik rassomlar" deb nomlab, ularga Paint garfik muharriri "Bizning uy", "Qishloqdagi bizning hovli", "Tog' manzaralari" va boshqa nomlar bilan ataluvchi peyzajlar yaratish;

B. Kelgusida matematika, muhandislik, chizmachilik, kompyuter grafika kasblariga qiziquvchi o'quvchilarni "Kichik muhandislar", "Kichik muhandislar" guruhiga bo'lib ularga Paint garfik muharriri "Matematikaning hayotdagi o'rne", "Geometrik figuralardan foydalanamiz" kabi mavzularda rasmlarni chizish;

C. Duradgorlik, ustachilik, xalq hunarmandchiligiga quzuquvchi o'quvchilarga hunarmandchilikka oid, quruvchilikka qiziquvchilarga, bino va obidalarni rasmlarni chizish,

D. Informatika va axborot texnologiyalari sohasiga qiziquvchilarga kompyuterning asosiy va vo'shimcha qurilmalarini, internetda axborot almashinuvini chizish va shu kabi topshiriqlarni berishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman aytganda informatika o'qituvchisi mavzularni kasbga yo'naltirib o'qitishda o'zi ham shu kasb haqidagi tasavvurlarga ega bo'lib, kasbning nozik jihatlarini o'quvchilar grafik muharrirda tasvirlay olishiga erishishi uchun beriladigan topshiriqlarni ijodiy ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

XULOSA

Informatika darslarida o'qituvchi tomonidan baholashning zamonaviy metodlari sifatida mustaqil ishlash, kichik loyiha, kichik keys, referat, krossvord, viktorina, bahs-munozara kechalarini tashkil etish va h.k. kiritish mumkin. Mustaqil ishlash o'qituvchi tomonidan berilgan informatikaga oid topshiriqni o'rganilganlarga asosan mustaqil bajarib, natijasini olish, yangi mavzularni adabiyotlardan topib konspekt qilish, o'rganish, referat yozish, fan to'garaklariga qatnashish kabilarni o'z ichiga oladi. Shuni hisobga olish kerakki, mustaqil ish o'qishning, aqliy mehnatning alohida turi bo'lib, talabaning kelajakda mustaqil faoliyat olib borishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni//Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq, 1997.
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. –T:, "Tafakkur". 2014.
3. <https://lib.cspi.uz>